

MUMTOZ ADABIYOTIMIZDA UCHRAYDIGAN PAYG‘AMBARLAR ISMLARINING TAHLILI

Avazberdiyeva Bahora

Navoiy davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20688648>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tiliga din ta‘sirida kirib kelgan va ijtimoiy hayotimizda va adabiyotimizda keng qo‘llanayotgan ibroniy tillaridan o‘zlashgan va bugungi kunda dunyoda keng iste‘molda bo‘lgan ismlar tahlil qilindi va adabiyotimizdan misollar yordamida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: ism, etimologiya, din, onomastika, ibroniy tili, atoqli ot.

Abstract. This article provides an analysis of names that have entered the Uzbek language under the influence of religion and are widely used in our social life and literature, and are widely used in the world today, and examples from our literature are provided.

Keywords: name, etymology, religion, onomastics, Hebrew language, proper noun.

Аннотация. В данной статье представлен анализ имён, вошедших в узбекский язык под влиянием религии, получивших широкое распространение в общественной жизни и литературе, а также активно используемых в современном мире; приводятся примеры из национальной литературы.

Ключевые слова: имя, этимология, религия, ономастика, древнееврейский язык, имя собственное.

Kirish. Qadim zamonlardagi globallashuv jarayonining ba‘zi ko‘rinishlarini biz din bilan ham bog‘lashimiz mumkin. Chunki dastlabki sivilizatsiyalar rivojlanishida va madaniyatlarining to‘qnashuvida dinning ta‘siri ostida ko‘plab jarayonlar sodir bo‘lgan. Ibrohim alayhissalom dinlarining yoyilishi o‘sha davr ism qo‘yilishda sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Buning sababi bu dinlarning ta‘siri doirasida islom, xristian va yahudiylik dinlariga e‘tiqod qiluvchilar ibroniy tilidan kelib chiqqan ismlarga murojaat qildilar va bu jarayonlar bizning ona tilimizni ham chetlab o‘tgani yo‘q. “Atoqli otlar jamg‘armasini asrash, uni yangi nomlar bilan to‘ldirib borish, ilmiy asosda o‘rganish har birimizning muqaddas burchimizdir.”¹ Hozirgi kunda ham mazkur tillardan kirib kelgan ismlar xalqimiz o‘rtasida arabcha va diniy ismlar sifatida talqin qilinib, keng iste‘molda sanaladi. Yahudiy ismlari diniy, tarixiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy jamiyatda qo‘llanilishi chuqur semantik va etnolingvistik asoslarga ega. Ushbu maqolada ayrim keng tarqalgan ismlarning etimologiyasi va ma‘nolari, ishlatilishi tahlil qilindi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda faol qo‘llanilayotgan ibroniy tilidan kirib kelgan ismlar turli tillar va madaniyatlar to‘qnashuvi natijasida fonetik o‘zgarishga uchragan: Sarah ismi Sora shaklida, Rachel yoki Rakel ismi Rohila tarzida va h.k. “Atoqli otlar o‘z tabiatiga ko‘ra tilning g‘oyatda turg‘un, kam o‘zgaruvchan, o‘zga tillarga tarjimasiz beriladigan

¹ Kilichev B. Onomastika. Buxoro, 2023. 3-bet.

materialidir. Shu xususiyatiga ko'ra atoqli otlar tarixiy, lisoniy va nutqiy jihatdan ilmiy tadqiqot uchun eng ishonchli daliliy vosita bo'ladi."² Shuning uchun, aynan, shaxs nomlarni o'rganish lingvistik jarayonlarni tarixiy jihatdan tadqiq etish imkonini beradi. Ularning ta'sir doirasini biz mumtoz adabiyotimizda, asosan, X asrdan keyingi asarlarda uchramiz. Masalan, Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi ul-anbiyo", ya'ni "Qisasi Rabg'uziy" asarida bu ismlarni islom dini nuqtayi nazaridan yaratilgan asarida uchratishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu kichik tadqiqotda turli xalqlarga xos bo'lgan shaxs ismlarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali ularning tarixiy, madaniy va ijtimoiy-psixologik ildizlarini yoritish maqsad qilingan. Tadqiqot doirasida tarixiy-tahliliy, muqoyasaviy hamda semantik yondashuv metodlaridan keng foydalanildi.

Ismlar insonni belgilovchi shunchaki vosita emas, balki har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniy ongi, dunyoqarashi va urf-odatlarini o'zida aks ettiruvchi muhim belgidir. Shu bois, ularni o'rganishda antroponimiyaga oid nazariy qarashlar, semiotik tahlil yondashuvlari asos qilib olindi.

Tadqiqotda tarixiy manbalar, badiiy adabiyotlar, xalq og'zaki ijodi va diniy-ma'naviy meros asosida ismlarning kelib chiqishi, semantik yuklamalari, ularning jamiyatdagi funksional roli va vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishga uchragani o'rganildi. Xususan, turkiy xalqlar singari bir-biriga yaqin, o'zaro tarixiy va madaniy aloqadorlikka ega bo'lgan elatlar orasida uchraydigan umumiy nomlar va ularning ildizlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, globalizatsiya jarayonining tarixiy ildizlarini aniqlash maqsadida sivilizatsion yondashuv asosida millatlar o'rtasidagi madaniy ta'sir, nomlar orqali ifodalangan qadriyatlar, ularning almashinuvi va singdirilishi jarayoni ham tahlil qilindi. Ismlar ustida olib borilgan qiyosiy va semantik tahlillar ularning lug'aviy tarkibi, ma'no doirasi va madaniy kontekstdagi yuklamalarini ochib berishga xizmat qildi. Natijada, ayrim ismlar nafaqat mahalliy, balki global darajada tarqalgan bo'lib, ular insoniyat tarixida umumiy qadriyatlar, mushtarak ma'naviy negizlar asosida shakllanganini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv shuni anglatadiki, globallashuv zamonaviy davr hodisasi bo'lishi bilan birga, aslida qadimdan boshlangan va madaniyatlararo ta'sir doirasida shakllanib borgan tarixiy-madaniy jarayondir.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan ismlardan biri bu *Yunus* ismidir. Mazkur ism ibroniy tilida "Yaratganning marhamati" degan ma'noni anglatadi [1] va ismning original shakli "Johanan" bo'lib, nemis va skandinav xalqlarida Johann, Jan, Joan, Janke, yunonlarda Ioannis, ruslarda Ivan, ingliz xalqlarida John, Johnny, fransuzlarda Jan, yahudiylarning o'zida esa Yohannan shakllarida uchraydi va qadimda ko'proq hukmron doiralar o'rtasida keng tarqalgan. Faqatgina islom dini e'tiqod qilinadigan mamlakatlardagina Yunus tarzida qo'llaniladi. Xalq og'zaki ijodida, milliy ertaklarimizda ham Yunus ismidan keng foydalaniladi.

Yoqub ismi ham yahudiy tilidan olingan bo'lib, bu ismning ma'nosi va kelib chiqishi haqida turlicha qarashlar bor. Bu ismning ma'nosi "tovon" yoki "to'piq" degan ma'nolarni anglatadi [1]. Yevropa xalqlarida Jacob, yunonlarda Iakabos, ruslarda Yakov, Iakov tarzida qo'llangan³.

² Kilichev B. Onomastika. Buxoro, 2023. 21-bet

³ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2000.

Keyinchalik payg'ambar va yahudiylarning afsonaviy shohi Yoqubga Isroil nomi berilgan.

Isroil ism sifatida ham xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan hisoblanadi. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi haqida turlicha fikrlar bor. Buni xristianlarda "Yaratganni ko'ra oladigan aql", yahudiy manbalarida esa "Yaratganni ko'rgan" deb talqin qilinadi. Mazkur ma'lumotlarni tahlil qilib, Yoqub ismining etimologiyasidagi aql so'zini e'tirof qilar ekanmiz, yetuk jadid namoyondalarimizdan biri hisoblanmish Abdulhamid Cho'lpon milliy adabiyotimizdagi ilk roman-dilogiya sanalmish "Kecha va kunduz" asaridagi fikrlashi bilan o'z davri kishilaridan ancha oldinlab ketgan qahramon Miryoqubga bejizga shunday nom bermaganligini anglaymiz. Yoqub ko'zining nuri, farzandi Yusuf dog'ida qoladi. Shuning uchun u mumtoz adabiyotimizda ayriliq ramzi sifatida qaraladi va "Bayt-ul hazan", ya'ni "g'am uyi" unga nisbat beriladi va Yusufning dog'ida ko'p yig'layverganidan ko'zlari ko'r bo'lib qolgan deyiladi:

Erur Ya'qub bog'ining niholi,
Halilulloh dashtining g'izoli.⁴

Yusuf ismi keng tarqalgan bo'lib, yahudiycha "yadah", ya'ni "maqtoov, shon-sharaf" hamda "asaf" so'zlarining qo'shilmasidan hosil bo'lgan deb taxmin qilinadi[1]. Turkiy, fors va arab xalqlarida Yusuf, Yevropa xalqlarida Joseph, Jozef, Joe, Xose slavyan xalqlarida Iosif va Ioziv shakllarida ham uchraydi⁵. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda sayyor syujetlardan hisoblanuvchi Yusuf va Zulayho timsolida Yaratganni tarannum etuvchi dostonlar mashhur sanaladi. Bundan tashqari Yusufning husni jamoli haqida turli ijodkorlar turlicha tashbih, istiora kabi badiiy san'atlardan foydalanganlar, Xususan, ulug' ijodkorlarimizdan sanalmish Atoyi o'zining "Jamoling vasfini qildim chamanda" nomli g'azalida: "Solib borma meni, ey Yusufi husn", - deya go'zal yori tasvirini ifodalash hamda talmeh san'atidan mahorat bilan foydalangan⁶, chunki mumtoz adabiyotimizdan Allohning taoloning muborak husnidan keyin Yusuf alayhissalomning husni turadi. Yusufning husni haqida gap ketar ekan, Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonida uni quyidagicha tasvirlaydi:

Dedi: "Husnim qilib uch sahm oyirdim,
Ango ondindan iki sahmim berdim.
Ikki hissasin oning Yusuf olsun,
Birisi o'zga dilbarlarga qolsun".⁷

Yana bir keng tarqalgan ismlardan biri *Sulaymon* ismi bo'lib, manbalarga ko'ra Dovudning o'g'li bo'lgan payg'ambar hamda shoh nomidan kelib chiqqan bo'lib, ibroniy tilida "Solomon", ya'ni "to'liq va yetuk, butun" degan ma'nolarni anglatadi, ba'zi taxminlarga ko'ra Sulaymon hamda "tinchlik" ma'nosini bildiruvchi so'zdan "salom" so'zlarining kelib chiqishi bir o'zakka borib taqaladi deb ham qaraladi[1]. Turli xalqlarda Sulaymon, Suleiman, Solomon shakllarida uchraydi. Mumtoz adabiyotimizda Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi Sulaymon va Manzara nomli chumoli o'rtasidagi suhbat Sulaymonning naqadar adolatli hukmdor bo'lganligining isboti sanaladi.

⁴ Jomiy A. Yusuf va Zulayho. Toshkent, 1974. 12-bet.

⁵ Oxford university dictionary.

⁶ Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. Toshkent, 2008.

⁷ Jomiy A. Yusuf va Zulayho. Toshkent, 1974. 13-bet.

Xususan, afsonalarda Sulaymon alayhissalomdan devlar qo‘rqishi aytiladi. Shuning uchun xalqimiz o‘rtasida “Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi” iborasi mashhur bo‘lib, ko‘pincha ma’lum bir qattiqqo‘l, adolatli rahbar shaxs mansabidan ayrilsa va boshqalar o‘z bilganicha ish ko‘rsa mazkur ibora qo‘llanadi. Bundan tashqari Sulaymon taxti ham ko‘pincha adabiyotimizda talmeh san’atining namunasi sifatida ishlatiladi. Xalqimizning sevimli va tanti shoiri Muhammad Yusuf o‘zining “Vatanim” she’rida o‘zining kindik qoni to‘kilgan ona yurtini Sulaymon taxtiga qiyoslaydi:

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim.
O‘zim xoqon
O‘zim sulton
Sen taxti Sulaymonim.⁸

Xulosa. Mazkur maqolada keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, yahudiy ismlari nafaqat tilshunoslik fanining, balki etnografiya, tarix va dinshunoslik nuqtayi nazaridan ham alohida ilmiy jihatdan chuqur tahlil qiladigan mavzudir. Shu sababli, yahudiy antroponimikasini o‘rganish ilm-fan uchun muhim bo‘lib, bunday tadqiqotlar orqali til va madaniyatlararo bog‘liqlik, tarixiy taraqqiyot va diniyqadriyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jonathan Z. Smith, *Map is Not Territory: Studies in the History of Religions*, University of Chicago Press (1978),
2. A. Jomiy. Yusuf va Zulayho. Toshkent, 1974.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2000.
4. M. Yusuf. Xalq bo‘l, elim. Toshkent, 2005.
5. N. Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. Toshkent, 2023.
6. Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. Toshkent, 2008.
7. B. Kilichev. Onomastika. Buxoro, 2023.

⁸ Yusuf M. Xalq bo‘l, elim. Toshkent, 2005. 65-bet.